Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320733

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

2. O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. 2023 yil. 26 dekabr.(o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 2024yil. 13 aprel. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
4. Kasimova G.A., Xaydarov A. G'aznachilikning dasturiy komplekslari. Darslik. T:. 2021. «Nihol print OK. 376 b.
5. Mehmonov S.U., Karimova Z.X.,Tursunov A.S. Budjet tizimi. Darslik. –T.: "IQTISOD-MOLIYa", 2018. -544 b.
6. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabr O'RQ-657 "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to'g'risida"gi qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabr O'RQ-742 "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabr O'RQ-813 "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to'g'risida"gi qonuni.
8. www.lex.uz
9. www.stat.uz
10. www.gov.uz

MAHALLIY BYUDJET XARAJATLARINI SAMARALI BOSHQARISH

Abdumuminova Zaxro Kamoliddin qizi
Guliston davlat Universiteti Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti 2-bosqich talabasi
abdumuminovazaxro01@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy byudjet xarajatlarini samarali boshqarish va uni tashkil etishning nazariy jihatlari tahlil qilingan. Bunda mahalliy byudjet xarajatlari tarkibi hamda samarali boshqarish masalalari o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: byudjet xarajatlari, byudjet jarayoni, davlat byudjeti, mahalliy byudjet, xarajatlar rejasi.

KIRISH.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining ijrosi mahalliy byudjetlar xarajatlari qismida o'z ifodasini topadi. Mamlakatdagi tuman va shaharlarda aholi sonining oshib borishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishi mahalliy byudjetlar xarajatlarning o'sishini taqazo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 1-noyabr kuni 2022-yil uchun soliq tushumlari hamda byudjet parametrlari yuzasidan o`tkazilgan yig`ilishda mamlakatimizda inson qadrini ulug`lash, insonlarning hayotini yaxshilash bosh maqsad etib belgilangandi, bu tamoyillar byudjetni shakillantirishda ham bosh mezon bo`lishi zarurligi haqida ham alohida qayd etib o`tildi.

Shuningdek, joriy yilning may oyida Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis palatalarining a`zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda "….biz O`zbekistonni ijtimoiy davlat, deb e`lon qildik. Mamlakatimizda 2200.0 mingdan ziyod oilalar ijtimoiy ko`makka muhtoj. Shu o`rinda bir masalaga e`tibor qaratmoqchiman. Yangilangan Konstitutsiyamizda davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko`paytirilmoqda. Buni amalda ta`minlash uchun juda ko`p ishlashimiz zarur.

Published: 23.12.2024
Cite this article: Abdumuminova Zaxro Kamoliddin qizi (2024). Mahalliy byudjet xarajatlarini samarali boshqarish. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320733
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Bunga davlat byudjetidan har yili qo`shimcha 30-40 trillion so`m ajratish kerak bo`ladi. Buning hisobidan, har yili yuzlab yangi bog`chalar, maktab va shifoxonalar qurishimiz lozim”,- deb ta`kidladilar.

Darhaqiqat, bu borada “Tashabbusli byudjet” dasturi joriy etildi. Albatta, bu biz uchun muhim rol o`ynaydi. Ushbu dastur doirasida ilgari surilayotgan takliflar asosida aholi hayotiga doir dolzarb masalalar o`z vaqtida va samarali hal qilinmoqda.

Shu bilan birga, byudjet xarajatlarini sarflash masalalarida hamon o`z yechimini kutayotgan masalalar ham bor. Masalan, byudjet hisobidan hududlar uchun ajratiladigan mablag`larning ma`lum bir ulushi bevosita respublika idoralari orqali markazdan turib moliyalashtirish oqibatida byudjet xarajatlari ijrosi ustidan joriy va jamoatchilik nazoratining samarasi pastligicha qolmoqda.

Shu bois, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy isl ohotlar doirasida mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish, byudjet mablag`laridan maqsadli va oqilona foydalanish, bunda ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga keng joriy qilish orqali ushbu masalaga tizimli yondashish ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Davlat byudjeti, mahalliy byudjet daramomadlari va xarajatlari hamda uni boshqarishni samarali tashkil etishga oid va tadqiq etish bo`yicha o`zining alohida hissalarini qo`shgan xorijiy olim v a iqtisodchilari Rossiyalik olim M.Romonovskiy, professor O.Suxarev va O.Serebryakova larning maqola va tezislaridan maqolani tayyorlashda foydalanildi. Shu bilan birga, Respublikamizning iqtisodchi olimlaridan G.Qosimova , N.Primova hamda A.S.Tursunov va boshqalarning ilmiy ishlari, o`quv qo`llanma , darslik va maqolalarini nazariy av amaliy jihatlarioni tahlil qilgan holda maqola tayyorlashda foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Davlat byudjetining 2024-yil uchun xarajatlari 312 921 milrd so`m yoki YaIM ning 24% (2023 yilda 282 133 mlrd so`m yoki YaIM ning 26,6 % bo`lishi kutilmoqda) etib pragnoz qilinmoqda. Iqtisodiy o`sishni rag`batlantirish maqsadida tarmoq rivojlanish dasturlarini amalga oshirishga sarflanadigan xarajatlarni oshirish rejalashtirilmoqda.

2024-yil uchun Davlat Xarajatlari Pragnozlari; 1-jadval:

Umumiy xarajatlar uchun	312 921 mlrd.so`m
Davlat qarzlariga xizmat ko`rsatish foiz ko`rsatgichida	16 381 mlrd. So`m
Infratuzilmani rivojlantirish xarajatlari	1 603 mlrd. so`m
O`zini o`zi boshqarish org. saqlash xamda Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo`llab quvvatlash	1 842 mlrd.so`m

Davlat boshqaruvi, adliya, prokuratura va sud organlarini saqlash xarajatlari	18 028 mlrd.so`m
Infratuzilmani rivojlantirish xarajatlari	31 732 mlrd.so`m
Elektir energiyasini xarid qilish va sotish narxlari o`rtasidaga salbiy tafovutni moliyalashtirish uchun xarajatlar	2 500 mlrd.so`m
Tabiiy gazni sotib olish va sotish o`rtasidagi salbiy tafovutni moliyalashtirish uchun xarajat	9 500 mlrd.so`m

Bu kabi xarajatlardan tashqari yana bir qancha xarajatlar amalga oshirildi. Ular quyidagilar:

a)Boshqa xarajatlar uchun 57 481 mlrd.so`m

b)Ijtimoiy soxa xarajatlari uchun 151 504 mlrd.so`m

c)Iqtisodiyot xarajatlari uchun 24 850 mlrd.so`m

Shu kabilar uchun mahalliy byudjet tomonidan xarajatlar qilindi.

Kelgusi yilda ijtimoiy xarajatlarga 151 504 mlrd. so`m yo`naltiriladi, biz o`z navbatida jami Davlat byudjeti xarajatlarining 48,2 % tashkil etadi.

Davlat dasturlariga xarajatlar, mlrd. so`m

2-jadval

	Dasturlar	2023	2024
	Madaniyat va san`atning rivojlantirish jamg`armasiga mablag`lar	165	170
	Madaniy meros obyektlarini rastavratsiya qilish va tiklash, shuningdek arxielogik ishlar uchun xarajatlar	150	125
	“Zakovat” intelektual klubi xarajatlari	50	50
	Madaniyat vazirligining byudjetdan tashqari jamg`armasi mablag`larine shakllantirish	47	50
	Manaviyat va ijodni qo`llab quvvatlash masadli jamg`armasiga	45	45
	Ommaviy axborot vositalarini xamda davlat xizmatlarining matbuot xizmatlarini rivojlantirish xarajatlari	20	20
	Milliy seriallar ishlab chiqishni qo`llab quvvatlash va rivojlantirish uchun Respublika miqysoida faoliyat yurutuvchi telekanallarga subsisdiyalar	12	12
	Ipak yo`li durdonasi Toshkent xalqaro kinofestivalini o`tkazish xarajatlari	10	10
	Davlat muzeylarini moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash uchun xarajatlar	8.9	10
0	Xorijiy kinokompaniyalar tomonidan O`zbekiston xudididda kino ishlab chiqarish xarajatlarining bir qismini qoplash	5	5

Quyida keltirilgan 2-jadval ma`lumotlari shuni ko`rsatadiki, Davlat dasturlari uchun qilingan xarajatlar jami bo`lib 2023- yil uchun 512,9 mlrd.so`m ni tashkil etganligi ko`rsatilgan. Joriy yil uchun esa 447 mlrd. so`m xarajat qilinganligini ko`rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqadiki, o`tgan oy uchun qilingan xarajatlar joriy yildagi xarajatlarga qaraganda 65.9 mlrd.so`m ga , ya`ni 1,15% ga ko`p.

2023-2024 yillarda Ta`lim sohasiga ajratilgan mablag`lar;

Sohalar	2023	2024
Maktabgacha ta`lim	11 0722.9 mlrd	13 507 mlrd
Umumiy o`rta ta`lim	39 682.5 mlrd	42 894 mlrd
Professional ta`lim (o`rta maxsus)	4 525.1 mlrd	12 675 mlrd
Maktabdan tashqari ta`lim	717.2 mlrd	471 230.5 mlrd
Akademik litsey	395.3 mlrd	45443.1 mlrd
Jami	158 788.6 mlrd	71 2012.6mlrd
Texnikumlar	2745.6 mlrd	263.0 mlrd

	Dasturlar	2023	2024
	Madaniyat va san`atning rivojlantirish jamg`armasiga mablag`lar	165	170
	Madaniy meros obyektlarini rastavratsiya qilish va tiklash, shuningdek arxielogik ishlar uchun xarajatlar	150	125
	“Zakovat” intelektual klubi xarajatlari	50	50
	Madaniyat vazirligining byudjetdan tashqari jamg`armasi mablag`larine shakllantirish	47	50
	Manaviyat va ijodni qo`llab quvvatlash masadli jamg`armasiga	45	45
	Ommaviy axborot vositalarini xamda davlat xizmatlarining matbuot xizmatlarini rivojlantirish xarajatlari	20	20
	Milliy seriallar ishlab chiqishni qo`llab quvvatlash va rivojlantirish uchun Respublika miqysoida faoliyat yurutuvchi telekanallarga subsisdiyalar	12	12
	Ipak yo`li durdonasi Toshkent xalqaro kinofestivalini o`tkazish xarajatlari	10	10
	Davlat muzeylarini moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash uchun xarajatlar	8.9	10
0	Xorijiy kinokompaniyalar tomonidan O`zbekiston xududidda kino ishlab chiqarish xarajatlarining bir qismini qoplash	5	5

	Dasturlar	2023	2024
	Madaniyat va san`atning rivojlantirish jamg`armasiga mablag`lar	165	170
	Madaniy meros obyektlarini rastavratsiya qilish va tiklash, shuningdek arxielogik ishlar uchun xarajatlar	150	125
	“Zakovat” intelektual klubi xarajatlari	50	50
	Madaniyat vazirligining byudjetdan tashqari jamg`armasi mablag`larine shakllantirish	47	50
	Manaviyat va ijodni qo`llab quvvatlash masadli jamg`armasiga	45	45
	Ommaviy axborot vositalarini xamda davlat xizmatlarining matbuot xizmatlarini rivojlantirish xarajatlari	20	20
	Milliy seriallar ishlab chiqishni qo`llab quvvatlash va rivojlantirish uchun Respublika miqysoida faoliyat yurutuvchi telekanallarga subsisdiyalar	12	12
	Ipak yo`li durdonasi Toshkent xalqaro kinofestivalini o`tkazish xarajatlari	10	10
	Davlat muzeylarini moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash uchun xarajatlar	8.9	10
	Xorijiy kinokompaniyalar tomonidan O`zbekiston	5	5

1) 2023-yilda Maktabgacha ta`lim yo`anlishiga amalga oshirilga xarajatlar 10 779.8 mlrd.so`m miqdorda tasdiqlangan xolda 11 722,9 mlrd so`m ga ijro etildi. Xarajatlarning oshishiga ish

haqi miqdorlarining oshirilishi hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va Xukumatining maktabgacha ta`lim muassasalari tarmog`ini kengaytirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo`yicha topshiriqlari ijrosi sabab bo`ldi.

2024- yilga kelib, bolalarni maktabgacha ta`lim bilan qamrovini 75% gacha oshirishini xisobga olgan holda maktabgacha ta`lim xarajatlari rejalashtirilgan va joriy yil uchun 13 507 mlrd so`m pul mablag`lari ajratilgan.

2) 2023- yilda davlat byudjetining umumiy o`rta ta`lim maktablari uchun 35 932.5 mlrd so`m tasdiqlangan. Ushbu mablag`larni 39 682.5 mlrd so`mga ijro etildi. Xarjatlar asosan ish haqining oshishi xamda ta`lim muassasalarida ishlaydigan ayollarga xomiladorlik va tug`ish nafaqalarini to`lash uchun qo`shimcha mablag`lar ajratish xisobiga tasdiqlangan parametrlarga nisbatan oshgan. Ushbu ko`rsatgich 2024- yilga kelib 42 894 mlrd so`mni tashkil etadi.

3) 2023- yilda Oliy ta`lim muassasalarini saqlash xarajatlari 4 525,1 mlrd so`mni tashkil etdi. Bundan tashqari shu yilda Iqtisodiyot va moliya vazirligi xuzuridagi ta`lim kreditini moliyalashtirish jamg`armasidan 170 100 ta talabalarga 1 914.8 mlrd so`m ajratilgan. Joriy yilga kelib esa 12 675 mlrd so`m pul mablag`lari ajratilgan.

4) 2023- yilda akademik litsey hamda texnikumlar uchun jami 2 745.6 mlrd.so`m xarajatlar uchun ajratilgan bo`lib, ushbu yilda esa 263 mlrd so`m pul mablag`lari sarf qilindi.

Umumiy qilib aytganimizda, 2023- yilda Ta`lim sohasi uchun jami 158 788.6 mlrd so`m pul mablag`lari mahalliy davlat byudjetidan sarf etilgan. Joriy yilga kelib esa 71 012.6 mlrd so`m ni tashlik etdi.

Xulosa.

Takidlash joizki, so`nggi yillarda mamalakat iqtisodiyotining tarmoqlarini isloh qilish doirasida byudjet sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo`yicha ham izchil ishlar amalga oshirilib, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va mablag`laridan foydalanishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining erkinligini ta`minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

-Biz bu maqolada O`zbekiston Respublikasi mahalliy byudjet xarajatlarini to`g`ri va maqsadli yo`naltirish hamda samarali boshqarish yo`llarini ko`rib chiqdik. Ushbu maqola orqali Respublikamizning turli sohalari hamda yo`nalishlari uchun ajratilgan pul mablag`larini tahlil qilib o`rganik. Mahalliy byudjetdan pul mablag`lari ijtimoiy soha, ilm-fan, ta`lim, sog`liqni saqlash, iqtisodiy sohalar uchun , sport, madaniyat va boshqa bir qancha sohalar uchun sarf qilinadi. Biz esa quyida keltirilgan sohalar uchun qancha sarf qilinganligini tahlil qilb chiqdik. Jadvalda keltrilgan malumotlar mahalliy byudjet xarajatlarining 3dan 1 qismi deya ayta olamiz.

Takliflar:

Davlat byudjeti xarajatlari ijrosida samaradorligini oshirish, shu jumladan, xarajatlarni amalga oshirilishida jamoatchilikdaning ishtirokini kengaytirish yuzasidan quyidagilarni taklif beramiz :

1. Respublika va mahalliy darajasidagi davlat xarajatlarini baholash va eng muhim byudjet dasturlarining yillik baholash metadologiyasini ishlab chiqish byudjet resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

2. Barcha darajasidagi byudjetlar va jamg`armalar mablag`lari hisobidan hududlarda amalga oshirilayotgan shlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish loyihalari to`g`risida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini xabardor qilish, birinchi darajali byudjet mablag`larini taqsimlovchilar tomonidan e`lon qilib borish amaliyotini joriy qilish.

3. Hududlarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish loyihalari uchun ajratilayotgan mablag`larni tegishli tuman g`aznachilik xizmatlari orqali moliyalashtirishni amalga oshirish orqali joriy nazoratni o`rnatilishini ta`minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev huzurida 2021-yil 1- noyabr kuni 2024-yil uchun soliq tushumlari hamda byudjet parametrlari yuzasidan o`tkizilgan yig`ilish bo`yicha rasmiy-veb saytda yoritilgan materialdan htttps://president.uz/uz/list/view/4738

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev 2023- yil 8-may kuni Oliy Majlis palatalari a`zolari siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvi htttpps//president.uz/uz/list/6277

3. M.Ramonovskiy, O.Suxarev, O.Serebryakova darsliklari va maqolalari asosida tayorlangan.

4. G.Qosimova, N. Primova , A.S.Tursunuv darsliklari.

5. Fuqorolar uchun byudjet.uz// stat.uz.

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Xakimov Tulkin Xalimovich
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish, sohada yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali mamlakat sanoatini xomashyo, aholini sifatli oziq - ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalari iqtisodiy salohiyatini tashkil etuvchilari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, korxona, salohiyat, iqtisodiy salohiyat, zahira, imkoniyat, moliyaviy salohiyat, agrar siyosat.

Iqtisodiyot nazariyasida “tashkiliy va iqtisodiy mexanizm” tushunchasi ko‘pincha yanada kengroq kategoriya – “xo‘jalik mexanizmi” tushunchasi orqali ifoda etilsada, iqtisodchi olimlar bu borada bir to‘xtamga kela olmaydilar, chunonchi ularning qarashlari ilmiy tadqiqotlar sohasidan kelib chiqqan holda, bir-biridan farq qiladi. Tadqiq qilinayotgan tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini ularning har birining mazmunini batafsil o‘rganish va bu borada nazariy yondashuvlarni rivojlantirish asosida o‘rnatish mumkin. Bu o‘z navbatida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni mazmunan talqin qilish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashtirish va zamonaviy agrar siyosatni rivojlantirishdagi rolini o‘rnini aniqlashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda tashkiliy-iqtisodiy mexanizm masalalariga bag‘ishlangan ko‘p sonli tadqiqotlarda ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun ob’yektning mustaqil tarzda amalda bo‘lishini belgilab beruvchi shakl, usul va qoidalarning umumiyligi sifatida